

9. Norqobilov, A. (2024). O 'zbekistonda tashqi savdoni notarif usullar orqali tartibga solishning mamlakat iqtisodiyotiga ta'siri. *YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT*, 1(3).

10. Norqobilov, A. (2024). Tashqi savdoda notarif usullarni qo'llashning iqtisodiy oqibatlarini aniqlash metodologiyasi (rivojlangan davlatlar tajribasi). *YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT*, 1(2).

11. Норқобилов А. (2024). ВЛИЯНИЕ ОТКРЫТОСТИ ТОРГОВЛИ НА ЭКОНОМИЧЕСКИЙ РОСТ В СТРАНАХ С ФОРМИРУЮЩИМСЯ РЫНКОМ: СРАВНЕНИЕ РЕГИОНОВ И РАЗВИТИЯ. *Экономическое развитие и анализ*, 2(12), 138–146. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/eitt/article/view/64346>

12. Norkobilov, Akobir. "Challenges and Opportunities in Uzbekistan's Foreign Trade: A Financial Perspective." *Nashrlar*, vol. 4, no. 1, 25 Mar. 2025, pp. 177-180, doi:10.60078/2025-vol4-iss1-pp177-180.

13. Sirajiddinov, N., & Norkobilov, A. (2024). Foreign trade liberalization and its impact on a country's economic growth (in the case of countries). *YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT*, 2(11).

O'ZBEKISTONDA OILAVIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA "ZONTIKLI KAFILLIK" TIZIMINI JORIY ETISHNING AHAMIYATI

Davlyatov Qahramon Abdumavlyanovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Mazkur tezisda O'zbekistonda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishda "zontikli kafillik" tizimining ahamiyati va amaliy imkoniyatlari tahlil qilingan. Tadqiqotda oilaviy tadbirkorlik sub'ektlarining bank kreditlaridan foydalanishida yuzaga kelayotgan asosiy muammolar, xususan, garov ta'minotining yetishmasligi masalasi yoritilgan. "Zontikli kafillik" tizimining mazmun-mohiyati ochib berilib, ushbu mexanizm orqali kredit risklarini kamaytirish, moliyaviy inklyuziyani oshirish hamda aholini tadbirkorlikka keng jalb etish imkoniyatlari asoslab berilgan. Tezis natijalari oilaviy tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish, yangi ish o'rinlari yaratish va aholi daromadlarini oshirishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: oilaviy tadbirkorlik, zontikli kafillik, bank kreditlari, moliyaviy inklyuziya, davlat qo'llab-quvvatlashi.

O'zbekistonda aholini daromadli mehnat faoliyatiga jalb etish va kambag'allikni qisqartirishda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Biroq amaliyotda oilaviy tadbirkorlik sub'ektlarining bank kreditlaridan foydalanish imkoniyatlari yetarli garov ta'minoti mavjud emasligi sababli cheklanib qolmoqda. Shu nuqtai nazardan,

“zontikli kafillik” tizimini joriy etish mazkur muammoni hal etishning samarali moliyaviy mexanizmi sifatida namoyon bo‘ladi.

“Zontikli kafillik” tizimida maxsus jamg‘armalar yoki davlat ishtirokidagi institutlar tomonidan bank kreditlari bo‘yicha qisman kafillik berilib, tadbirkorlarning garovga bo‘lgan talablari kamaytiriladi. Bu esa oilaviy tadbirkorlik sub’ektlarining kredit resurslariga kirish imkoniyatlarini kengaytiradi, banklar uchun kredit risklarini pasaytiradi hamda moliyaviy inklyuziyani oshirishga xizmat qiladi.

Bu tizim bir tashkilot masalan, davlat yoki maxsus fondlar bir vaqtning o‘zida ko‘plab kreditlar yoki qarz oluvchilar uchun kafil bo‘lishini anglatadi.

O‘zbekistonda kichik biznes va oilaviy tadbirkorlik sub’ektlarining aksariyati kredit olishda garov ta‘minotining yetishmasligi muammosiga duch kelishadi. Ya‘ni, ko‘p hollarda tadbirkorlarda yetarli ko‘chmas mulk yoki likvid aktivlar mavjud emas, mulk rasmiylashtirilmagan yoki boshqa shaxs nomida bo‘ladi va garov qiymati kredit miqdoriga nisbatan ancha past bo‘ladi.

Shu sababli tijorat banklari qarz tavakkalchiligi yuqori bo‘lgan loyihalarni rad etadi. Bu esa oilaviy tadbirkorlik sub’ektlariga jiddiy muammo tug‘diriradi.

Shu sababli biz tadqiqotimida respublikamiz amaliyotida qo‘llanilmaydigan “Zontikli kafillik” (*Umbrella Guarantee*) tizimini amaliyotga tadbiiq etishni taklif qilamiz. “Zontikli kafillik”— bu oddiy kafolatdan farqli ravishda, bir necha bank yoki kredit tashkilotlari uchun yagona kafolat mexanizmini ishga soladigan markazlashgan tizimdir.

Uning asosiy xususiyatlari shundaki, bank har bir loyiha bo‘yicha alohida kelishuv tuzmaydi. Ya‘ni, har bir kichik tadbirkor yoki loyiha uchun alohida kafolat shartnomasi tuzishning o‘rniga, bir martalik paket kafolat orqali barcha loyihalar “zont” ostiga jamlanadi.

Misol uchun, Xalq bankidan 100 ta oilaviy tadbirkor kredit olishni hohlamoqda. Odatda bank har bir tadbirkor uchun 100 ta alohida kafolat shartnomasi tuzishi kerak bo‘ladi, bu vaqt, byurokratiya va xarajatni ko‘paytirdi.

Zontikli tizimda esa kompaniya va bank o‘zaro paket kafolat shartnomasi tuzadi (*masalan, 100 milliard so‘mgacha bo‘lgan portfel uchun*).

Bu orqali kredit berish jarayoni tezlashadi, hujjatlar soni keskin kamayadi, bank va kafolat fondi o‘rtasidagi ishonchli tizim shakllanadi.

Mazkur modelning afzalliklari.

- Vaqt va resurs tejaldi — har bir qarz uchun alohida kafolat shartnomasi tuzish shart emas;

- Banklar uchun xavf kamayadi — paket kafolat shartnomasi umumiy riskni qoplaydi;

- Fond uchun boshqarish oson — nazorat va monitoring markazlashtirilgan bo‘ladi;

- Oilaviy tadbirkorlar uchun yengil kirish imkoni — hujjat topshirish tartibi soddalashadi.

Bu model Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida (*ayniqsa Germaniyada*) KfW va Bürgschaftsbanken tizimi aynan shunday zontikli kafolat modeli asosida ishlaydi.

Tizimning amaliyotga joriy etilishi natijasida kredit portfeli diversifikatsiyalanadi, yangi ish o‘rinlari yaratiladi va aholining o‘zini o‘zi band qilish darajasi oshadi. Shu bilan birga, “zontikli kafillik” mexanizmi oilaviy tadbirkorlikni institutsional jihatdan qo‘llab-quvvatlash orqali barqaror iqtisodiy o‘sishni ta‘minlashga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. “Raqamli O‘zbekiston — 2030 strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. 2020 yil 5 oktabr, PF-6079-son.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori. “Har bir oila – tadbirkor” dasturini amalga oshirish to‘g‘risida. 2018 yil 7 iyun, PQ-3777-son. Hamidov, B. “O‘zbekistonda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishning moliyaviy mexanizmlari.” – Iqtisodiyot va innovatsiyalar jurnali, 2023.

3. Rajabov, Sh. “Tadbirkorlikka kafillik tizimlari: xorijiy tajriba va O‘zbekiston amaliyoti.” – Moliya va Bank ishi, 2022.

4. Usmanova, D. “Zontikli kafillik va mikro kreditlar: oilaviy biznes uchun yangi imkoniyatlar.” – Iqtisodiy tadqiqotlar, 2024.

5. Abdullayev, X. “O‘zbekistonda oilaviy tadbirkorlik uchun moliyaviy kafillik mexanizmlari.” – “Iqtisod va moliya” jurnali, 2023.

TIJORAT BANKLARI AKTIVLARI TARKIBI VA MUAMMOLI KREDITLARNING BANK BARQARORLIGIGA TA’SIRI

Umarova Durdona Abdusalomovna

Bank-moliya akademiyasi “Bank ishi” mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada 2020–2025-yillar davomida O‘zbekiston tijorat banklari aktivlari tarkibi, ularning o‘shish dinamikasi va samaradorligi empirik tahlil qilingan bo‘lib, tadqiqotda bank aktivlarining tarkibi, kredit va investitsiya portfellarining o‘zgarishi hamda moliyaviy barqarorlikka ta‘siri baholangan. Shuningdek, davlat va xususiy banklar faoliyati qiyosiy tahlil asosida o‘rganilib, muammoli kreditlar darajasi va risklarni boshqarish mexanizmlarining samaradorligi aniqlangan.

Kalit so‘zlar: tijorat banklari, bank aktivlari tarkibi, aktivlar samaradorligi, moliyaviy barqarorlik, kredit portfeli, investitsiya portfeli, muammoli kreditlar (NPL), risklarni boshqarish, bank tizimi islohotlari, davlat banklari, xususiy banklar.

Bugungi kunda jahon moliya bozorlarida kechayotgan transformatsiya jarayonlari, bank tizimini erkinlashtirish va raqamli bank tizimini jadal